

## “Ellinistik Sharq: an’ana va innovatsiya” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti hamda Surxondaryo viloyat hokimligi bilan hamkorlikda “Ellinistik Sharq: an’ana va innovatsiya” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.



Anjuman ishtirokchilariga tabrik so‘zini yo‘llagan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Bekzod Yuldashev ta’kidlaganidek, “Yurtimizda ellinistik davr moddiy-madaniy yodgorliklari, bu davrda rivoj topgan san’at turlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamisha dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. O‘tgan yillar davomida San’atshunoslik instituti olimlari tomonidan bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilib, ko‘plab monografiya va to‘plamlar nashr etildi. Quvonarli jihati, bu yo‘nalishdagi zamonaviy tadqiqotlar, ekspeditsiyalar hozirgi kunda ham davom etmoqda. San’atshunoslik instituti tomonidan tashkil etilgan ushbu xalqaro anjuman o‘zbekistonlik va xorijlik olimlarning sa’y-harakatlarini birlashtirgan holda, ellinistik davr sharq madaniy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish ishini yanada rivojlantirishi aniq”.

Antik davr tarixi va madaniyatini o‘rganish bo‘yicha yirik mutaxassislar, yetakchi san’atshunos va tarixchilar qatnashgan ushbu anjumanda AQSh, Germaniya, Rossiya, Chexiya, Yaponiya davlatlaridan olimlar ham ma’ruza bilan ishtirok etishdi.

Anjumanda akademik E.V Rtveladzening “Kampirtepadagi ellin davriga oid olov ibodatxonasi”, I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog’iston davlat san’at muzeyi direktori T.K. Mkrtichevning “Kushon davri Baqtriya san’atida so’nggi ellin madaniyati an’analar”, AQSh ning Xofstra universiteti olimi, professor A.I. Naymarkning “Evtidem tangalariga taqlid: ye.a. I asr Buxorodagi alanlar sulolasi”, Yaponiyadagi Sharq falsafasi instituti olimi K. Kvasakining “Kushon davri Baqtriya san’atiga ellin madaniyatining ta’siri”, Germaniyadagi Berlin Arxeologiya instituti xodimi N. Borovkaning “Qo’rg’onzol — Buyuk Aleksandr qal’asi”, Chexiyaning Karlov universiteti olimlari L. Stancho, J. Kisla, P. Milo, T. Tenkerning “Janubiy O’zbekistonda so’nggi ellin davriga oid Iskandartepa yodgorligining kashf etilishi”, Berlindagi Yaqin Sharq arxeologiyasi instituti tadqiqotchisi A.Kurbanovning “Avliyotepa Janubiy Turkmanistondagi mil. avv. II-I asrlarga oid qishloqlar”, Rossiya Federatsiyasi Davlat Ermitaj muzeyi xodimi A.V.Omelchenko va t.f.n. G.P. Ivanovning “Poykentdagi olov ibodatxonasiga oid yangi tadqiqotlar”, Rossiya Federatsiyasining Umumiy tarix instituti xodimi S.V.Smirnovning “Markaziy Osiyoda zarb qilingan, Rossiya muzeylarida saqlanayotgan Salavkiylari davlati tangalari” kabi mavzulardagi ma’ruzalarini alohida ta’kidlash lozim.

Onlayn shaklda tashkil etilgan anjumanda O’zbekiston hududida antik davrda kechgan madaniy jarayonlar, bu davrga oid shahar va qal’alar, olov ibodatxonlari, me’moriy an’analar, devoriy rangtasvir, zargarlik, kulolchilik namunalari, salavkiylar, parfiya va kushon tangalariga bag’ishlangan ma’ruzalar katta qiziqish bilan qabul qilindi va muhokama qilindi.